

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI PhD
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOZOROV ABDUSODIQ ABDURAYIMOVICH

**PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR PSIXIK HOLATINING KASBIY
RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA’SIRI**

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs
psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Psychological Sciences**

Bozorov Abdusodiq Abdurayimovich

Professor-o'qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga
ta'siri.....3

Бозоров Абдусодик Абдураимович

Влияние психического состояния профессоров-преподавателей на динамику
профессионального развития.....23

Bozorov Abdusodiq Abdurayimovich

Effects of the psychological condition of professors-teachers on the dynamics of
professional development.....45

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI PhD
03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOZOROV ABDUSODIQ ABDURAYIMOVICH

**PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR PSIXIK HOLATINING KASBIY
RIVOJLANISH DINAMIKASIGA TA’SIRI**

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs
psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P1239 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shamshetova Anjim Karamiddinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Kamoliddin Botirovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Abdullaeva Shoiraxamida
psixologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxora davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat _____ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

N.B.Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori, professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'lim universalligini ta'minlashda professor-o'qituvchilar kasbiy rivojlanish dinamikasiga ular psixoemotsional sohasi ta'sirining potentsial imkoniyatlarini o'rganish va baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada oliy talim professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi va kasbiy rivojlanishni ta'minlovchi psixologik xususiyatlardan hissiy barqarorlik, yuqori darajada empativlik, tolerantlik, stressga bardoshlilikni zamon talablariga mos takomillashtirish zarur va juda muhimdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra¹, dunyo miqyosida 67 % insonlarda doimiy ravishda kasbiy zo'riqish, 33 % ining faoliyatida stressogen omillarning ustivorligi qayd etilgan. Ta'lim sohasi vakillari bo'lgan umumiy o'rta ta'lim pedagoglarining 34 %i, oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining 32 % turli darajadagi kasbiy stresslarni boshdan kechirishlari aniqlangan. Bunday vaziyatda oliy talim professor-o'qituvchilar kasbiy rivojlanishining motivatsion, hissiy-irodaviy sohasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni ilmiy tadqiq etish dolzarb muammo bo'lib, mazkur fenomenni ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon oliy ta'lim va ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarida professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan oshirish bo'yicha turli innovatsion, ilgor usullar ta'lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Xalqaro ahamiyatli Boloniya deklaratsiyasi qoidalariga binoan: «Dunyo oliy ta'limi sifati va uning samaradorligini yanada oshirish, o'quv jarayonida talabalar va pedagoglar xamkorligini kuchaytirish, oliy ta'limni bitirgan mutaxassislarini muvaffaqiyatli ish bilan ta'minlash»²ga ta'sir etishi qayd etilgan. Bu borada ta'lim berish salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda ilmiy ijodkorlikni shakllantirish ko'rsatkichi va dinamikasi professor-o'qituvchilar kasbiy muhim sifatlarini yanada rivojlantirishga zamin yaratishi namoyon bo'lganligi professor-o'qituvchilar kasbiy rivojlanishiga samarali ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, psixik holatlarning pedagog xulqiga ta'sirini ilmiy tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasiga yangicha yondashuvlarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilib, zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yangilangan davlat oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini joriy qilish, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish ustuvor vazifalardan...»³ etib belgilanganligi professor-o'qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri muammosini ilmiy tadqiq etishda zarur asos bo'la oladi.

¹Centre for Disease Prevention and Control (2023), annual meeting report at the end of the year). Publication of the scientific collection P. – 56.

²<https://eurydice.eacea.ec.europa.eu>.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son. -O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2019 yil oktyabr, 41-son (905). B.10-14.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 2-maydagi «Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida»gi QL-1010-sonli Qarori hamda oliy ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyatiga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan nazariy-amaliy hal etishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan Sh.H.Abdullaeva, M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, S.N.Jo‘rayeva, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, D.S.Qarshieva, A.I.Rasulov, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, Sh.S.Shoyimova va boshqalar tomonidan ta‘lim sohasida pedagog xodimlarning kasbiy rivojlanishi, pedagogik imiji, kasbiy faoliyatini takomillashtirish masalalari bo‘yicha professor-o‘qituvchilarni kasbiy faoliyati psixologik jihatlari, pedagog faoliyatiga ta‘sir etuvchi emotsional holatlar, ta‘lim muhitida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, pedagoglarda professional kompetentlik masalalarini ilmiy-amaliy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan O.A.Anisimova, V.A.Abramov, B.B.Aysmontas, A.A.Baranov, S.N.Batrakova, M.V.Bogdanova, T.V.Formanyuk, L.S.Grechishyeva, A.P.Gorbunov, G.V.Igonina, Y.A.Klimov, Y.B.Kirichenko, N.V.Kaygorodseva, A.B.Leonova, A.K.Markov, N.A.Mozgovaya, Yu.P.Povarenkov, Y.I.Rogov L.P.Urvansev, G.A.Vinogradova, E.F.Zeyer, V.P.Zinchenko va boshqalar o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiya, professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, pedagog faoliyatida kasbiy zo‘riqishlar, stressogen vaziyatlar va professor-o‘qituvchining salomatligi, zamonaviy o‘qituvchi va uning kasbiy faoliyati modelining psixologik-pedagogik mexanizmlari masalalarini ilmiy-amaliy tadqiq etganlar.

Xorijiy davlatlar psixologlaridan A.M.Aloe, B.E.Ashforth, L.C.Amo, J.L.Andreas, G.D.Borman, L.Bardach, A.B.Dellinger, P.P.Kansane, R.M.Klassen, S.T.Kroft, R.B.Pertti, J.H.Reed, N.L.Sulaiman va boshqalar muvaffaqiyatli o‘qituvchi va uning kasbiy muhim sifatlari, pedagoglarning ijodkorlik malakalari, professor-o‘qituvchilarning hissiy-irodaviy sohasi, professional o‘qituvchi va uning psixologik modeli, kasbiy stresslar va uning profilaktikasi, professor-o‘qituvchilar

emotsional intellektning tarkibiy tuzilishi kabi masalalarga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot ishi O'zbekiston Milliy universiteti IL-21 09378 raqamli «Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan. (2021-2023-y.y.).

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini o'rganish hamda psixologik amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlariga ko'ra o'z ustida ishlash motivining dinamik namoyon bo'lishi va o'qituvchilar psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarini hamda differensial farqlarning mavjudligini aniqlash;

oliy ta'lim professor-o'qituvchilar pedagogik faoliyatidan kasbiy charchash darajasidagi depersonalizatsiya, psixik toliqishi hamda o'qituvchilar professional ishonchini "shaxsiy yutuqlarni reduksiyalashi" o'z-o'zini rivojlantirish xususiyatiga bog'liq ekanligini aniqlash;

professor-o'qituvchilar psixik holatining faoliyatga salbiy ta'siri ta'lim subyektlari o'zidagi intrapsixik ziddiyatlari shaxslararo munosabatlarda autoagressiv reaksiyalarning namoyon bo'lishi bilan bog'liq nizolar, o'zini nazorat qilishi, pedagogik qo'llab-quvatlanishi va kasbiy pedagogik faoliyatga uyg'un kechishini dalillash;

oliy ta'lim professor-o'qituvchilar psixik holatlarining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri modeli ichki emotsional holatlarni, "xulq-atvorning faoliyatga moslashuvchanligini" kiritish asosida takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida professor-o'qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasi ta'sirini aniqlash jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotga 5 yildan 15 yilgacha mehnat ish stajiga ega bo'lgan Termiz davlat universitetidan 88 nafar, O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetidan 120 nafar, Navoiy davlat pedagogika universitetidan 72 nafar, jami 280 nafar professor-o'qituvchilar respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar psixik holati, kasbiy rivojlanishiga samarali ta'sir qiluvchi kasbiy kamolot sifatleri va asosiy mezonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, K.Maslach, S.Jeksonning «Kasbiy so'nish diagnostikasi» metodikasining N.E.Vodopyanova Y.S.Starchenkovalar tomonidan moslashtirilgan varianti, L.N.Berejnovaning «O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy pedagogik faoliyat darajasi diagnostikasi» metodikasi, Y.Strelyauning Nerv-psixik holatni (Kasbga bardoshlilik)ni aniqlash so'rovnomasi, R.B.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish so'rovnomasi», K.T.Tomasning «Shaxs xususiyatlari» diagnostikasi

so'rovnomasi metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan: matematik-statistik metodlaridan Kolmogorov-Smirnov Z-mezone, Mann-Uitni U-mezone, Kruskal-Uollis H-mezone, Spirmen r-mezone korrelyatsiya mezonlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlariga ko'ra o'qituvchidagi emotsional tolerantlikka bog'liq o'z ustida ishlash motivining dinamik namoyon bo'lishi professional hamda shaxsiy yutuqlarga nisbatan ambivert munosabatni shakllanishiga olib kelganligi tufayli shaxs individual-tipologik xususiyatlari asosida kasbiy so'nish darajasiga vektorli ta'sir qiluvchi xavotirli-depressiv harakterdagi psixoemotsional omillar aniqlashtirilgan;

professor-o'qituvchilarning faoliyatdan psixik so'nish darajasi pedagogning individual xususiyatlariga bog'liq kasbiy rivojlanish motivlarini tormozlovchi jamoadan ichki begonalashuv (depersonalizatsiya) hissi muloqotdan qochish, hissiy beqarorlikni yuzaga keltirganligi tufayli shaxsning o'ziga bo'lgan professional ishonchini "shaxsiy yutuqlarni reduksiyalash" asoslangan emotsional intolerantlik orqali pasayishiga identiv ekanligi aniqlangan;

professor-o'qituvchilar psixik holatining faoliyatga salbiy ta'siri ta'lim sub'yektlari o'zidagi intrapsixik ziddiyatlarni shaxslararo munosabatlarda autoagressiv reaksiya ko'rinishida differensial ifodalashiga ko'ra nizoli vaziyatlarda hamkorlik pozitsiyasining ijtimoiy kutuvlarga moslashish ko'nikmasi orqali koping xulqni passiv strategiyasiga integrativ namoyon bo'lishi bilan bog'liq ekanligi dalillangan;

professor-o'qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini psixologik modeli ichki emotsional holatlarni xulq-atvordagi ifodasi kasbiy funkcionallikning adaptatsiya, professional shakllanish va turg'unlik bosqichlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishiga ko'ra, "xulq-atvorning faoliyatga moslashuvchanligi" komponentini pedagog professiogrammasida emotsional tolerantlikka integrativ qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarning psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillari aniqlanib, tizimlashtirilgan;

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini muvaffaqiyatli shakllanishi psixologik modeli ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan;

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarida kasbiy kamolotni yanada rivojlanishida tizimlilikni ta'minlash, zamonaviy psixotrening mashg'ulotlar texnologiyalari hamda kasbiy kamolotni takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalardan psixotrening mashg'ulotlari tizimlashtirilgan va amaliyotga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliliigi muammoning aniq qo'yilganligi, diagnostik vositalar orqali to'plangan ilmiy ma'lumotlardan foydalanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, xalqaro miqyosda tan olingan metodikalar, matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llanilgan bo'lib, respondentlarning tanlanish hajmi va uning reprezentativligi, empirik izlanishlarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqot natijalari ko'rsatkichlarining boshqa mualliflarning

ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil etilganligi va ishonchli manbalarga asoslanganligi, asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan, xulosalar va tavsiyalarining amaliyotda joriy qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati professor-o'qituvchilarning kasbiy kamolotini shakllantirish xususiyatlari, kasbiy rivojlanish, kasbiy samaradorlikga erishishdagi aniq mezonlarni yoritib berilishi, empirik natijalari bo'yicha chiqarilgan ilmiy xulosalardan «Kasbiy psixologiya», «Pedagogik psixologiya», «Psixologik maslahat va psixokorreksiya» fanlarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi mumkinligi, o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan va qo'llanilgan psixologik tashxis vositalari, psixologik trening mashg'ulotlari xulosa va tavsiyalar amaliyotchi psixologlar, professor-o'qituvchilar va oliy ta'lim muassasalari tyutorlari, psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida psixologik xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlashda foydalanish mumkinligi tomonidan keng foydalanishlari mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Professor-o'qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri masalalarini tadqiq qilish asosida:

pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlarga ko'ra o'qituvchidagi emotsional tolerantlikka bog'liq o'z ustida ishlash motivining dinamik namoyon bo'lishi professional hamda shaxsiy yutuqlarga nisbatan ambivert munosabatni shakllanishiga olib kelganligi tufayli shaxs individual-tipologik xususiyatlari asosida kasbiy so'nish darajasiga vektorli ta'sir qiluvchi xavotirli-depressiv harakterdagi psixoemotsional omillar aniqlashtirilgan natijalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-165 son buyrug'i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-165 a-son ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

professor-o'qituvchilarning faoliyatdan psixik so'nish darajasi pedagogning individual xususiyatlariga bog'liq kasbiy rivojlanish motivlarini tormozlovchi jamoadan ichki begonalashuv (depersonalizatsiya) hissi muloqotdan qochish, hissiy beqarorlikni yuzaga keltirganligi tufayli shaxsning o'ziga bo'lgan professional ishonchini "shaxsiy yutuqlarni reduksiyalash" asoslangan emotsional intolerantlik orqali pasayishiga identiv ekanligi aniqlangan takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-165 son buyrug'i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-165 a-son ma'lumotnomasi). Natijada, professor-o'qituvchilarning emotsional charchoq holati, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarni kamaytiruvchi motivlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilingan;

professor-o'qituvchilar psixik holatining faoliyatga salbiy ta'siri ta'lim subyektlari o'zidagi intrapsixik ziddiyatlarni shaxslararo munosabatlarda

autoagressiv reaksiya ko‘rinishida differensial ifodalashiga ko‘ra nizoli vaziyatlarda hamkorlik pozitsiyasining ijtimoiy kutuvlarga moslashish ko‘nikmasi orqali koping xulqni passiv strategiyasiga integrativ namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq ekanligi dalillangan takliflar O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-165 son buyrug‘i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-165 a-son ma‘lumotnomasi). Natijada, professor-o‘qituvchilar psixik holatining faoliyatga salbiy ta‘siri ta‘lim sub‘ektlari o‘zidagi intrapsixik ziddiyatlarni shaxslararo munosabatlarda autoagressiv reaksiya ko‘rinishida differensial ifodalashiga ko‘ra nizoli vaziyatlarda hamkorlik pozitsiyasining ijtimoiy kutuvlarga moslashish ko‘nikmasi orqali koping xulqni passiv strategiyasiga integrativ namoyon bo‘lishi ochib berilgan;

professor-o‘qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta‘sirini psixologik modeli ichki emotsional holatlarni xulq-atvordagi ifodasi kasbiy funktsionallikning adaptatsiya, professional shakllanish va turg‘unlik bosqichlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishiga ko‘ra “xulq-atvorning faoliyatga moslashuvchanligi” komponentini pedagog professiogrammasida emotsional tolerantlikka integrativ qo‘llash asosida takomillashtirilganligiga oid takliflar O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-165 son buyrug‘i bilan «Kasb psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-165 a-son ma‘lumotnomasi). Natijada, professor-o‘qituvchilar psixik holatining kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta‘sirini psixologik modeli takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika hamda 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari bo‘yicha 12 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 126 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, ob‘yektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning

ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Professor-o'qituvchilar psixik holati va kasbiy rivojlanish dinamikasining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan bo'lib unda psixologik tadqiqotlarda professor-o'qituvchilarni psixik holati va kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri o'rganilishining zarurati va dolzarbligi batafsil keltirilgan. Jumladan, professor-o'qituvchilarni psixik holati va kasbiy rivojlanish masalasi Sharq mutafakkirlari hamda G'arb psixologlari tomonidan o'rganilganligi batafsil ravishda yoritib berilgan. Nazariy tahlil asosida professor-o'qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanishiga ta'siri masalalari ko'rib chiqilgan.

Ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda professor-o'qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri masalasi qator oliy ta'lim universitetlari oldida turgan eng muhim vazifalarni to'liq amalga oshirishda hisobga olinish zarur bo'lgan tomonlaridan biri sanaladi.

Ma'lumki, professor-o'qituvchilar psixologiyasini bilmasdan ya'ni ta'lim jarayonlarida o'qituvchining nerv-psixik holatlari, kayfiyati, affekt holati va kasbiy stresslar ta'lim sifatiga bo'lgan ta'siri ilmiy salohiyat mas'uliyatini oshirishga ta'siri masalasi tadqiqot obyekt sifatida o'rganilishini taqozo etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Professor-o'qituvchilar psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini tadqiq etish usullari**"ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda professor-o'qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini o'rganish metodlari, professor-o'qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini o'rganish bosqichlari va professor-o'qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar bayoni tahlil etilgan.

Professor-o'qituvchining psixik holatini o'rganish va uning kasbiy rivojlanishiga ta'siri masalalarini tajribali psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqot metodikalaridan foydalangan holda ochib berishga harakat qildik ushbu bobimizda.

Ta'lim tizimida katta islohotlar borayotgan bir vaqtda yuqori malakali professor-o'qituvchilar nafaqat o'z kasbiy bilimlariga ega bo'lishi, ularda ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni rivojlantirish, insonparvarlik xarakterga ega bo'lgan pedagoglarni yetishtirish lozim. Professor-o'qituvchilar o'zining kasbiy bilimlarini integratsiyalashgan holda olib borishni yo'lga qo'yishimiz zarur. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining psixik holati kasbiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini o'rganishda 5 yildan 15 yilgacha mehnat ish stajiga ega bo'lgan TerDU, O'zDJTU hamda Navoiy DPU professor-o'qituvchilari bilan tadqiqot ishlarini olib bordik.

Tadqiqot ishimizda respondentlarni psixik holatini o'rganish maqsadida K.Maslach, S.Jeksonning Professor-o'qituvchilarni "Kasbiy so'nish" diagnostikasi metodikasidan foydalanib, ularning natijalari solishtirilgan holda ko'rib chiqildi.

1-jadvalda "Kasbiy so'nish diagnostikasi" metodikasi shkalalari bo'yicha jins tafovutlari mavjudligi kuzatildi. Hissiy toliqish va depersonalizatsiya shkalalari bo'yicha ishonchli farqlar kuzatilmadi, shaxsiy yutuqlar reduksiyasi shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi.

1-jadval

“Kasbiy so‘nish diagnostikasi” metodikasi shkalalari bo‘yicha jins xususiyatlarini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezon)

| Shkalalar | Jinsga oid o‘rtacha ranglar | | U | p |
|--|-----------------------------|-----------------|--------|--------|
| | ayollar (n=194) | erkaklar (n=86) | | |
| Hissiy toliqish | 134,97 | 152,97 | -1,719 | 0,086 |
| Depersonalizatsiya | 145,50 | 129,22 | -1,558 | 0,119 |
| Shaxsiy yutuqlar reduksiyasi | 147,08 | 125,66 | -2,044 | 0,041* |
| Psixik toliqish (uch komponent uchun qiymatlari) | 143,96 | 132,69 | -1,076 | 0,282 |

Izoh: * - $p \leq 0.05$.

Erkaklar va ayollarning natijalarida ishonchli farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($U=-2044$; $p \leq 0,05$). Tadqiqotimizda ishtirok etgan ayyolarda – o‘z ishida kompetentsiya tuyg‘usining pasayishi, kasbiy sohada o‘zini salbiy idrok etishi, kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi qadrlashlariga bo‘lgan ehtiyojlarga qisman muhtoj ekanligi kuzatildi, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik, ishiga nisbatan befarqlik hissinig paydo bo‘lishi kuzatiladi. Altruistik tarkib - ishiga nisbatan ish motivatsiyasi va ishtiyoq darajasining pasayishi, motivatsion sohaning holati kasbiy faoliyatning samaradorligi, optimizm va ishga qiziqishlariga nisbatan munosabatlarida befarqlik paydo bo‘lishi, ushbu shkalamiz ko‘rsatkichlarida o‘z ifodasin qisman bo‘lsada topdi. Erkaklarda, aksincha, o‘z ishida kompetentsiya tuyg‘usining barqarorligi, o‘zidan rozilik, o‘z faoliyati qiymatini to‘g‘ri baholashi, kasbiy sohada o‘zini ijobiy tomonlama qabul qilishi namoyon bo‘ldi, shuningdek ular ijtimoiy qo‘llab quvvatlovga kamroq ehtiyoj sezishligi kuzatildi.

2-jadval

L.N.Berejnovaning «O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy pedagogik faoliyat darajasi diagnostikasi» metodikasi natijalari, jins tafovutlari, (Mann-Uitni U-mezoni)

| Shkalalar | ayollar (n=194) | erkaklar (n=86) | U | p |
|--------------------------------------|-----------------|-----------------|--------|--------|
| Qay darajada o‘zlashtirilganligi | 148,94 | 121,45 | -2,637 | 0,008* |
| O‘ziga bo‘lgan ishonchning turlari | 142,69 | 135,57 | -,697 | 0,486 |
| Pedagogik qo‘llab quvvatlash ballari | 150,46 | 118,03 | -3,148 | 0,002* |

Izoh: * - $p \leq 0.05$

2-jadvalda ‘ko‘rinib turganidek, L.N.Berejnova “O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy pedagogik faoliyat darajasi diagnostikasi” metodikasi shkalalari bo‘yicha jins tafovutlarini tahlil qilish vaqtida biz ishonchli tafovutlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Pedagogik faoliyatni qay darajada o‘zlashtirilganligi shkalasida erkaklar va

ayollarning natijalarida ishonchli farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($U=2637$; $p \leq 0,05$). Tadqiqotimizda ishtirok etgan ayollar kasbiy faoliyat davomida turli jarayonlarga munosabat bildirishi erkaklarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Shaxsiy va kasbiy jihatdan faoliyat jarayonida, berilayotgan topshiriq va vazifalarni o'zlashtirishida ancha tez va faollik ko'rsatishi bilan erkaklarga nisbatan ajralib turishi ushbu ko'rsatkichlarda ko'rib o'tdik. Pedagogik qo'llab quvvatlash shkalasi natijalari tahlil qilinganda bunda ham ishonchli natijalar chiqqanligini kuzatishimiz mumkin ($U=-3,148$; $p \leq 0,05$).

Pedagogik qo'llab quvvatlash va professional faoliyat davomida o'z-o'zini anglash imkoniyati bilan birgalikda jamoa manfaatlarini himoya qilish, o'z-o'zini anglash uchun kerakli va yetarli o'z ustida ishlash aynan ayollarning natijalarida shu shkalalarning yuqori chiqqanligi, ayollar professional faoliyat davomida o'zaro hamkorlik va qo'llab quvvatlashda erkaklarga nisbatan ko'proq intilishar ekan. Natijalar tahlilida o'ziga bo'lgan ishonchning turlari shkalasi bo'yicha ishonchli farqlar kuzatilmadi.

3-jadvalda turli ish stajlariga ega bo'lgan pedagoglarni shaxs xususiyatlari diagnostikasi so'rovnomasi umumiy mehnat stajlarini taqqoslash natijalari raqobatlilik bo'yicha natijalarni qayd etgani va bu standart me'yor bo'yicha o'rtacha miqdorni qayd etgani namoyon bo'ldi. Shkalaning ahamiyatlilik darajasi va turli ish stajlari o'rtasida farq kuzatilmadi. Hamkorlik shkalasi bo'yicha professor o'qituvchilarning turli ish stajlariga ega bo'lganlar bo'yicha ko'rsatkichlari ($H=6,568$; $p \leq 0,05$). 1-5 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan pedagoglarda 150,61 yani hamkorlikka bo'lgan intilish faol, bu ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilar dastlabki yillarda mehnat faoliyatiga hamjihatlik va foallik bilan kirishadilar, kasbiy faoliyatda jamoa bilan hamkorlikka intilish yuqori bo'ladi, yangi ish tajriba kam shu sababdan hamkorlikka intilish faol bo'ladi.

3-jadval

Turli ish stajlariga ega bo'lgan pedagoglarni "K.T.Tomasning Shaxs xususiyatlari diagnostikasini o'rganish so'rovnomasi" metodikasi shkalalari bo'yicha taqqoslash natijalari (Kruskal-Uollis H-mezon)

| Shkalalar | Ish staji (o'rtacha ranglar) | | | H | p |
|------------------|------------------------------|--------------------|---------------------------|-------|--------|
| | 1-5 yil (N=88) | 6-10 yil (N=96) | 10 yildan ortiq (N=96) | | |
| raqobat | 144,09 | 147,29 | 130,42 | 2,567 | 0,277 |
| hamkorlik | 150,61 | 124,04 | 147,69 | 6,568 | 0,037* |
| murosa | 123,36 | 138,17 | 158,54 | 9,050 | 0,011* |
| tortishuvchanlik | 138,98 | 139,25 | 143,15 | ,164 | 0,921 |
| moslashuvchanlik | 132,27 | 142,54 | 146,00 | 1,512 | 0,469 |

Izoh: * - $p \leq 0,05$

Uchinchi shkala murosa qila olish shkalasi bo'yicha professor o'qituvchilarning. Turli ish stajlariga ega bo'lgan pedagoglarni ko'rsatkichlari ($H=9,050$; $p\leq 0,05$). Bu shkala bo'yicha professor-o'qituvchilarning olgan natijalari ko'rsatkichlari 10 yildan ortiq ishlaganlarda murosa qila olish xususiyati juda yaxshi rivojlangan. Individning shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillarining o'zaro aloqalariga ko'ra jamoadoshlari va talabalar bilan faol kirishuvchan. O'n yildan ortiq ishlagan pedagoglar individual to'laqonli ijtimoiy vaziyat va asosiy faoliyat bilan bog'liq bosqichlarda o'zaro murosa qila olish xususiyatiga egadir. Ularda kasbiy faoliyatida shaxsiy hayotda, shaxs sifatida o'z maqsad va g'oyalarini amalga oshirishga faol harakat qiladilar.

To'rtinchi va beshinchi shkala ya'ni tortishuvdan va moslashuvchanlik qochish shkalasi bo'yicha turli ish stajlariga ega bo'lgan pedagoglarni natijalari o'rtasida olingan natijalar bo'yicha ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bu esa, oliy ta'lim professor o'qituvchilarida jamoadoshlari bilan bog'liq munosabatlardagi omillar o'rta natijani ko'rsatganligi va kasbiy faoliyati davomida o'zaro kelishuvni o'rnatishlari, mehnat stajlariga bog'lik emasligini kuzatdik.

4-jadvalda ko'rinib turganidek, "O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy pedagogik faoliyat darajasi diagnostikasi" metodikasi shkalalari bo'yicha ma'lumot darajasini taqqoslash natijalarida, tafovutlarni tahlil qilish vaqtida tafovutlar mavjudligini kuzatdik. Pedagogik qo'llab quvvatlash shkalalari bo'yicha ishonchli farqlar kuzatilmadi. Pedagogik faoliyatni qay darajada o'zlashtirilganligi oliy ma'lumot va ilmiy darajaga ega pedagoglar natijalarida ishonchli farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($U=5012,000$; $p\leq 0,05$). O'ziga bo'lgan ishonchning turlari ($U=4974,000$; $p\leq 0,05$). Ilmiy darajalilarda o'rtacha farq ahamiyat kasb etmoqda, o'rtacha tafovutlar ko'rsatkich natijalarini quydagicha izohlaymiz.

Pedagogik faoliyat qay darajada o'zlashtirilganligi va o'ziga bo'lgan ishonchning turlari, ilmiy darajaga ega bo'lgan pedagoglarda yuqori ko'rsatkichini qayd etmoqda. Kasbiy faoliyatni o'zlashtirganligi va rivojlanganligi, o'ziga bo'lgan ishonch, emotsional holatlari barqaror ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijalar asosida, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida yutuqlarga va jamoa bilan hamkorlikka intiladi, shuningdek, ilmiy tadqiqot olib borishda talabalarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatishda ancha faol bo'ladilar, ma'lumki, professor-o'qituvchining kasbiy o'z o'zini rivojlantirishi va kasbiy pedagogik faoliyat darajasi o'qituvchining doim kasbiy rivojlanishini ongli ravishda boshqarish, kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish maqsadlarini amalga oshirish, turli usullar orqali va o'qituvchilar o'zlarining kasbiy faoliyatining individual uslubini shakllantirib va takomillashtirib borishadi. Ko'p komponentli shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega jihatlarini ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar rivojlantirib boradilar. Pedagogik ta'lim tizimida hozirgi holatda yuqoridagi qoidalar asosida aks etadi. Hali ham bilimga, ta'lim mazmunining nazariy tarkibiy qismiga ustuvorlik berishadi, o'z-o'zini rivojlantirish muammolarini hal qilishga to'liq tayyor bo'lishi ko'rinadi, 4-jadvalga qarang.

**“O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy pedagogik faoliyat darajasi diagnostikasi”
metodikasi shkalalari bo‘yicha ma‘lumot darajasini taqqoslash natijalari
(Mann-Uitni U-mezon)**

| Shkalalar | Ma‘lumot darajasi (o‘rtacha ranglar) | | U | p |
|--------------------------------------|---|---------------------------------|----------|--------|
| | Oliy ma‘lumot (n=226) | Ilmiy darajaga ega (n=54) | | |
| Qay darajada o‘zlashtirilganligi | 135,68 | 160,69 | 5012,000 | 0,040* |
| O‘ziga bo‘lgan ishonchning turlari | 135,51 | 161,39 | 4974,000 | 0,030* |
| Pedagogik qo‘llab quvvatlash ballari | 138,12 | 150,46 | 5564,000 | 0,335 |

Izoh: * - $p \leq 0.05$

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Professor-o‘qituvchilar psixik holati va kasbiy rivojlanishning samaradorligi”** Professor-o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyati bu ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi ekanligi va unda faoliyat olib boruvchi xodimlarning ahvoli, sharoitlari hamda psixik imkoniyatlari mosligi ilmiy tadqiqotlarni olib borildi. Oliy ta‘limning professor-o‘qituvchilari boshqa ta‘limda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilardan farqlanib turadi. Shaxsning kasbiy faoliyatga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyati, vazifalarni bajarishga bo‘lgan ijodiylik darajasi, hamkorlik qilishga nisbatan istakning yuqoriligi kabilar kasbiy rivojlanishni tushuntiruvchi psixologik unsurlardir. Oliy ta‘limning professor-o‘qituvchilar eng muhim hislatlari kasbiy bilimlarini oshirib borishi, o‘z kasbini hurmat qilishi, kasbiga bo‘lgan mehrini namoyon eta olishi, ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishini namoyon ettira olishi zarurdir. Tadqiqot tahlillari professor-o‘qituvchilaridan yuksak darajadagi talablar, majburiyatlar yoshlarga ta‘lim berish maqsadidagi o‘qituvchilarda hissiy charchash sindromini rivojlanish xavfi, uning ta‘sirida professor-o‘qituvchilar o‘rtacha stressning namoyon bo‘lishi shuningdek, professor-o‘qituvchilarni psixik holati kasbiy rivojlanishga ta‘sirining qiyosiy tahlili hamda professor-o‘qituvchilarni “Kasbiy kamolot”ini rivojlanishini ta‘minlovchi psixotrening mashg‘ulotlari va amaliy tavsiyalar kabi masalalar ilmiy tahlil etilgan. Natijalar ushbu bobimizning empirik tahlillarimizda o‘z aksini topdi.

5-jadvalda ko‘rinib turganidek, qo‘zg‘alish kuchi shkalasi bo‘yicha barcha yoshdagi professor-o‘qituvchilarda umumiy ko‘rsatkichlar deyarli farq qilmadi. Bizga ma‘lumki, qo‘zg‘alish kuchi me‘yoridan yuqori bo‘lishi asab tizimi juda sezgirligi va bu kuchliligidan ustunligini bildiradi. Faoliyatning ko‘plab sohalari uchun asab tizimining kuch va zaiflik xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. O‘qituvchilarda qo‘zg‘alish sur‘ati, uning ritmi, tashqi ta‘silarga javob berish

xususiyatlari yaxshi rivojlangan, bu sinaluvchi yoshdagi professor-o‘qituvchilar talabalarni o‘qitish, dars berish ko‘nikmalari shakllanmaganligidan darak bermoqda.

5-jadval

Turli yosh guruhlariga ega bo‘lgan pedagoglarni “Ya. Strelyau shaxs so‘rovnomasi” shkalalari bo‘yicha taqqoslash natijalari, (Kruskal-Uollis H-mezon)

| Shkalalar | Yosh guruhlar (o‘rtacha ranglar) | | | H | p |
|---------------------|----------------------------------|--------------------|----------------------------|--------|---------|
| | 30 yoshgacha (N=88) | 31-35 yosh (N=116) | 36 yoshdan kattalar (N=76) | | |
| Qo‘zg‘alish kuchi | 152,85 | 128,59 | 143,11 | 4,871 | 0,088 |
| Tormozlanish kuchi | 147,15 | 141,53 | 128,80 | 2,061 | 0,357 |
| Harakatlanish kuchi | 148,72 | 149,62 | 112,26 | 10,533 | 0,005** |

Izoh: ** - $p \leq 0.01$

Faoliyatning dinamik xususiyatlarini o‘rganish uchun unga ko‘p yoqlama yondashishni amalga oshirish zarur. Faqat motivatsion va regulativ jabhalarini hisobga olish bilan kasbiy faoliyat mohiyatini tavsiflab bo‘lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jihatlar bilan bog‘liq tomonlarini ham tadqiqotimiz doirasida o‘rganish zarurdir.

Tormozlanish kuchi shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkich oliy ta‘lim professor o‘qituvchilarida tafovutlar farq qilmadi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan professor o‘qituvchilarning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida mustaqillik kuzatiladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta‘minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishishini tavsiflovchi har xil ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan uquvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko‘rsatkichlari uning hamkorlik faoliyatiga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi.

5-jadvalda shuningdek, harakatlanish kuchi shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkich professor-o‘qituvchilarda ($H=10,533$; $p \leq 0,01$). Tafvut va farqlar yaqqol namoyon bo‘lib turibdi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida mustaqillik kuzatiladi. Harakatlanish kuchi shkalasi bo‘yicha farqlar ko‘rsatkichi 31-35 yoshdagi professor-o‘qituvchilarda 149,62 ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar harakatlanishi kuchi ma‘lum bo‘ldi. Ushbu yoshdagi professor-o‘qituvchilar boshqa yoshdagilarga nisbatan ancha faol, kasbiy va shaxsiy faoliyatlarida tashabbuskordirlar. Demak, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, professor-o‘qituvchilar berilgan so‘rovnomalarga nisbatan mulohazalari hozirgi davr va kelgusi kasbiy faoliyat jarayoniga kirishganda ulardagi kasbiy muvaffaqiyatlarga ko‘proq erishadilar. Hozirgi o‘quv mashg‘ulotlari va topshiriqlarni bajarishda faollik ko‘rsatishadilar, shuningdek, harakatlanish kuchi ushbu yosh guruhlarida to‘liq namoyon bo‘lmoqda,

Navbatdagi 6-jadvalda “Kasbiy so‘nish diagnostikasi” va “Kettelning 16 omilli so‘rovnomasi” metodikalari shkalalari o‘rtasidagi aloqadorlikning namoyon bo‘lishi

